

## **“TADBIRKORLIK YO’NALISHLARINI TANLASHGA O’RGATISH”**

Axunova Saodatxon Adilovna

Farg’ona viloyati Qo’qon shahar kasb-hunar maktabi Maxsus fan o‘qituvchisi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bozor iqtisodi sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiyiqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to‘planishining va bankning rivojlanishining asosiy manbaidir.. Kalit so’zlar: davlat, bank, tadbirkorlik, hizmat, pul, foyda, ish, O’zbekiston, yoshlar, mustaqillik... Azaldan yurtimiz o‘zining bolajonligi, yoshlarning kamoloti barcha davrlarda ustuvor bo‘lib kelgani bilan ajralib turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugun dunyo aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qilmoqda. Yurtimizda esa bu ko‘rsatkich e’tirof etsa arzigulik – aholining 60 foizdan oshiq qatlami kelajagimiz davomchilari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu ma’noda ham, O’zbekistonni yoshlar mamlakati, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlarni ish bilan ta’minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o‘z o‘rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishii eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me’yoriy asolarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o‘zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi. Yurtimizda tadbirkorlik azaldan xalqimiz uchun xos bo‘lgan va jamiyatda yuksak qadrlangan. Xususan, Amir Temur o‘z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarni g‘oyat qadrlagan: “Tajribamda ko‘rilganki, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi.” Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g‘oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo‘sishma daromad manbaiga ega bo‘lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotinqizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalari ro‘yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining



bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda. Aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqalari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda. Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning o'rni beqiyos. Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarini amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarini amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda. O'z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarini amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarini o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefonidan foydalanish kifoya. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin: - informatsion; - tranzaksion. Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvni hisoblanadi. Bunda bank tomonidan



mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari: Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridanto 'g'ri aloqa amalga oshiriladi. Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega. Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda: to'lovlarni o'tkazish; to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish; barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o'z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi va pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo'ladi. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi. SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimdir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak. Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi: hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar; hisobvarag'idan qilingan xarajatlar; hisobvaraq balansi; kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida ularga ko'rsatiladigan bank xizmatlari ko'lамини yanada kengaytirish, ayniqsa, ajratiladigan kreditlar hajmini ko'paytirish zamon talabi bo'lib qoldi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishni taqozo etadi.



**Foydalaniman adabiyotlar:**

1. “Tadbirkorlik asoslari” U.G’afurov, Q.Sharipov Toshkent “O‘zbekiston” 2018 yil
2. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami. T. “O‘zbekiston”, 2012 yil
3. “Pul muomalasi va kredit” B.D.Sharipov “Ilm va fan” nashriyoti Toshkent 2022 yil
4. “Banklarda kassa ishini tashkil etish va nazorat qilish” B.D.Sharipov “Ilm va fan” nashriyoti Toshkent 2022 yil
5. YO.Abdullayev, Sh.Shoha’zamiy, Qimmatli qog‘ozlar. T. “Mehnat”, 2009 yil
6. SH.Abdullayeva, Pul, Kredit va banklar T. “Moliya”, 2007 yil
7. Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar. T.: “Moliya” nashriyoti, 2008y.

